


Termiz shahrida sportning karate turi bo'yicha "Janub kubogi" musobaqasiga start berildi.



Surxon vohasi bugun yana bir katta sport bayrami - karate WKF bo'yicha bolalar, o'smirlar va yoshlar o'rtasida "Janub kubogi" musobaqasiga mezbonlik qilmoqda. Musobaqada respublikamizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahridan, shuningdek, qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston respublikalaridan 800 nafarga yaqin sportchi-karatechilar ishtirok etmoqda.







Bugun musobaqaning birinchi kuni qizg'in kurashlarga boy ruhda o'tdi. Mazkur bellashuvda O'zbekiston karate milliy federatsiyasi raisi Nurxon Nafasov va viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari Jo'rabek To'raevlar musobaqani tantanali ochib berdilar va dastlabki kun g'oliblarni taqdirlash marosimida ishtirok etishdi.

Ushbu musobaqada 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan spotchi o'g'il-qizlar joriy yilning 17 may kuniga qadar bahs olib borishadi.